

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/26.05.2022.T.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

ISAQOVA MATLUBA ABDUHALIMOVNA

**O‘SIMLIK YOG‘LARINI EKSTRAKSIYALASH JARAYONINI
TAKOMILLASHGAN BOSHQARISH TIZIMINI ISHLAB
CHIQISH**

05.01.08 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va
boshqarish

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

Isaqova Matluba Abduhalimovna

О'simlik yog'larini ekstraksiyalash jarayonini takomillashgan boshqarish tizimini
ishlab chiqish 5

Исакова Матлуба Абдухалимовна

Разработка усовершенствованной системы управления процессом экстракции
растительных масел.....21

Isaqova Matluba Abduhalimovna

Development of an improved control system for the process of extracting vegetable
oils 39

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY
TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.03/26.05.2022.T.10.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI”
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI**

ISAQOVA MATLUBA ABDUHALIMOVNA

**O‘SIMLIK YOG‘LARINI EKSTRAKSIYALASH JARAYONINI
TAKOMILLASHGAN BOSHQARISH TIZIMINI ISHLAB
CHIQISH**

05.01.08 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va
boshqarish

**texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI150**

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/T5077 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari universiteti" Milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tiame.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portali (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Ismailov Mirhalil Agzamovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Alimova Nodira Batirjanovna
texnika fanlari doktori, professor

To'raqulov Zafar Safarovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari universiteti" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi DSc.03/26.05.2022.T.10.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026- yil "_____" soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel.: (99871) 237-46-68, faks: +(99871) 237-19-36, e-mail: admin@tiame.uz).

Dissertatsiya bilan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari universiteti" Milliy tadqiqot universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqam bilan ro'yxatga olingan. Manzil: 100095, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel.: (99871) 237-46-68).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "_____" da tarqatildi.
(2026-yil "_____" dagi _____ raqamli restr bayonnomasi)

N.S.Mamatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

D.Q.Bekmuratov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

S.S.Radjabov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Jahon miqyosida o‘simlik urug‘laridan yog‘ olish jarayonlarini tadqiq etish va takomillashtirish masalasi hozirgi kunda global oziq-ovqat xavfsizligining muhim tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. Dunyo aholisining o‘sishi, yog‘- moy mahsulotlariga bo‘lgan talabning barqaror sur‘atlarda ortib borishi va xomashyo bazasining cheklanganligi ishlab chiqarish jarayonlarini ilmiy asosda optimallashtirish zaruriyatini obyektiv tarzda belgilab qo‘ymoqda. Texnologik jarayonlarning murakkab fizik-kimyoviy tabiati, ko‘p omilli xususiyati hamda an‘anaviy usullarning etarli darajada aniqlik ta‘minlay olmasligi yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Shu bilan birga, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, yog‘ chiqimini ko‘paytirish, mahsulot sifatini yaxshilash va zararli moddalar konsentratsiyasini hisobga olgan holda boshqarish tizimini tadqiq qilishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Jahon ilmiy amaliyotida yog‘ olish jarayonlarini intensivlashtirish maqsadida ultratovush kavitatsiyasi, mikroto‘lqinli ekstraksiya, superkritik CO₂ va impulsli elektr maydon (IEM) texnologiyalari kabi ilg‘or usullar faol tadqiq etilmoqda. Biroq mazkur texnologiyalar ixtisoslashtirilgan yangi avlod uskunalarini, maxsus konstruktiv echimlarni hamda yuqori kapital xarajatlarni taqozo etadi. Respublikamizda yog‘- moy sanoatida keng tarqalgan ND-1250 tipidagi lentali ekstraktorlar esa sovet davrida ishlab chiqilgan standart konstruksiyaga ega bo‘lib, ularning texnik-texnologik parametrlari ultratovush generatorlari, mikroto‘lqinli qurilmalar yoki superkritik bosim rejimlarini o‘rnatish imkoniyatini konstruktiv jihatdan rad etadi. Bunday sharoitda zamonaviy intensivikasiya usullarini mavjud sanoat uskunalariga tatbiq etish texnik-iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq emas. Shu sababli, mavjud ND-1250 ekstraktorida kechadigan yog‘ olish jarayonining fizik-kimyoviy qonuniyatlarini chuqur ilmiy tadqiq etish, jarayon kinetikasini chiziqli, nochiziqli dinamik masalalarning yangi matematik modelini qurish hamda sonli yechish algoritmini va kompyuter dasturlarini yaratish bugungi kundagi dolzarb muammolardan biridir.

Respublikamizda kimyo sanoati, neft-gaz va qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish orqali eksport salohiyatini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Ushbu maqsadlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonida, jumladan “... iqtisodiyotda resurslar va energiyani tejoychi texnologiyalarni keng joriy etish...”, “...oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash...”, “...ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish...”¹ vazifalari belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda jumladan, presslash, ekstraksiyalash va rafinatsiyalash jarayonlarini matematik modellashtirish hamda optimallashtirish sohasining ustuvor ilmiy vazifalari quyidagilardan iborat: xomashyoning maydalanish darajasi va strukturasi buzilish darajasini inobatga olgan holda presslash kinetikasini

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-fevraldagi PF-28-sonli “Yuqori texnologiyali sanoatni rivojlantirishni qo‘llab quvvatlash bo‘yicha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni

fizik-kimyoviy qonuniyatlar asosidagi tenglamalar tizimi ko‘rinishida ifodalash; urug‘ ichki strukturasi erituvchiga yog‘ning o‘tish mexanizmini to‘liq tavsiflovchi ekstraksiya modeli ishlab chiqish; rafinatsiya bosqichlarida zararli moddalar generatsiyasini miqdoriy tavsiflovchi tenglamalarni tuzish hamda barcha bosqichlarni qamrab oluvchi integral optimallashtirish algoritmini yaratish. Mazkur vazifalarni kompleks tarzda hal etish ishlab chiqarish samaradorligini ilmiy asosda oshirishning nazariy va amaliy poydevorini tashkil etuvchi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston 2021-2030” strategiyasini tasdiqlash bo‘yicha farmon. Strategiyada raqamli texnologiyalar orqali ishlab chiqarish va boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirish va samaradorligini oshirish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi, Prezident Farmoni, 2025-yil 18-noyabr PF-59-son “Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va davlat ulushiga ega korxonalarda samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari hamda 2024-yil 12-yanvardagi PQ-48-sonli “Resurs va energiya tejoyvchi texnologiyalarni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2025-yil 4-oktyabrdagi PQ-295-sonli “Hududlarda sanoatning tezkor rivojlanishi va sanoat korxonalarini eksportga jalb qilish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlarda hududlardagi sanoat salohiyatini faollashtirish, ishlab chiqarish hajmini oshirish, yuqori texnologik loyihalarni joriy etish va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishni maqsad qilgan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV.“Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ekstraksiyalash masalalarini yechishda xorijiy olimlardan H.O.Zhao, G.J.Rong, R.B.Bird, W.E.Stewart, E.N.Le, E.A.Delgado, M.L.Feron, J.M.Smith, M.K.Bhuiya, M.G.Rasul, M. K.Khan, N.A. Ashwath, A.K. Azad, M.P.Mofijur, A.V.Kirillov, A.L.Biegler va boshqalar o‘zlarini ulkan hissa qo‘shganlar.

O‘zbekistonda yog‘ olish jarayonlari, qayta ishlash texnologiyalarini takomillashtirish, energiya tejamkor hamda ekologik jihatdan xavfsiz jarayonlarni rivojlantirishga N.R.Yusupbekov, H.Z.Igamberdiyev, S.A.Abdurakhimov, Sh.M.Gulyamov, M.A.Karabayeva, M.A.Ismailov, Y.Sh.Avazov, R.R.Ramazonov, S.A.G‘aybullayev, Sh.A.Karamatov, I.A.Yusupov, B.T.Hamidov, A.O.Jabborov va boshqalar o‘zlarining hissalarini qo‘shganlar va qo‘shib kelmoqdalar.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari universiteti” Milliy tadqiqot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari OT-F7-88 – “Toza mahsulotlar olishning energiya va resurs tejamkor issiqlik-massa almashinish jarayonlarining istiqbolli murakkab kimyo-texnologik

tizimlarining nazariy asosalarini takomillashtirish” (2020-2025) mavzudagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘simlik xomashyosidan yog‘ olish jarayonini model va algoritmlar asosida takomillashtirilgan boshqarish tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

o‘simlik xom-ashyosidan yog‘ olish jarayonining hozirgi holati tizimli tahlillash;

boshqaruv obyektlarini presslash, ekstraksiyalash va rafinatsiyalash jarayonlarini fizik-kimyoviy qonuniyatlar asosida matematik modelini ishlab chiqish;

o‘simlik yog‘ini olishning asosiy jarayonlarini modellashtirish algoritmini yaratish;

yog‘ ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish mezonlarini tanlash va algoritmlarini ishlab chiqish;

yog‘ olish jarayonini texnologik majmuasini koordinatsion boshqarish algoritmi va dasturini ishlab chiqish;

tadqiq qilingan ekstraksiyalash jarayonini ishlab chiqilgan modeli va algoritmlar orqali takomillashtirilgan boshqarish tizimi sanoat sharoitida joriy qilish.

Tadqiqot obyekti sifatida chigitdan o‘simlik yog‘larini olish texnologik majmuasini takomillashtirilgan boshqarish tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini o‘simlik urug‘laridan yog‘ olish jarayonlarini boshqarish tizimlarini modeli, dasturi va algoritmlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, texnologik model majmualarini modellashtirish, optimallashtirish va raqamlashtirish usullari, texnologik o‘lchash usullari hamda boshqarish tamoyillaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘simlik urug‘laridan yog‘ olish jarayonini modda almashish qonuniyatlariga asoslangan matematik modeli ishlab chiqilgan;

o‘simlik urug‘ini parchalash, yog‘ni siqib olish va uni yog‘ kislotalaridan tozalash jarayonlarini texnologik majmuasi holatini tahlillovchi algoritmi ishlab chiqilgan;

presslash, ekstraksiya va rafinatsiyalash jarayonlarini asosiy ko‘rsatkichlarini ifodalovchi mezonlar tanlangan va ularni ekstremum qiymatlarini topish imkonini beruvchi optimallashtirish algoritmi ishlab chiqilgan;

o‘simlik urug‘laridan yog‘ olish jarayonlarini o‘zaro muvofiqlashtirish imkonini beruvchi koordinatsion boshqarish algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari paxta chigitidan yog‘ olish jarayonini matematik modellashtirish orqali modda almashish jarayonlarini asosiy boshqarish imkoniyati ko‘rsatkichlari aniqlangan.

yog‘ olish jarayonlarining asosiy bosqichlari, jumladan, urug‘larni parchalash, yog‘ni siqib chiqarish va uni tozalash jarayonlari uchun holatni aniqlash va baholash algoritmlari ishlab chiqilgan.

paxta chigitidan yog‘ olish jarayonini baholash va optimallashtirish imkonini beruvchi hisoblash usullariga asoslangan takomillashgan boshqaruv tizimi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi uslubiy asoslangan nazariy hisob-kitoblarni amalga oshirilganligi, paxta chigitidan yog‘ olish jarayonini modda almashuv qonuniyatlari asosida baholash, yakuniy mahsulot sifat ko‘rsatkichlarini bashorat qiluvchi matematik modellar va hisoblash algoritmlaridan foydalanganligi texnologik jarayonlarni optimallashtirishda murakkab tizimlarni optimallashtirish usullari va vositalardan foydalanib o‘tkazilgan nazariy va tajribaviy tadqiqotlar natijalarining o‘zaro muvofiqligi, sanoat-sinov tajribalari natijalarining ijobiyliги bilan tasdiqlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumiy qabul qilingan samaradorlik mezonlariga muvofiq yakuniy mahsulot sifatini bashoratlash va takomillashtirilgan boshqarish tizimlari sinfidagi paxta chigitidan yog‘ olish texnologik jarayonini optimal boshqarish tizimini qurishning konstruktiv usuli bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati real vaqt rejimida yog‘ olish jarayonida bashoratlovchi modelga ega bo‘lgan hamda boshqarish tizimi tarkibida mahsulot sifatini aniqlash va nazorat qilishni ta‘minlovchi algoritmlar va dasturiy ta‘minot yordamida istiqbolli boshqarish tizimlarini ishlab chiqish uslubiyatini dasturiy amalga oshirilishi, buning natijasida olinadigan baholarning ishonchliligi va tezkorligi oshishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘simlik yog‘larini olishning texnologik jarayonlarini optimal boshqarish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

o‘simlik urug‘laridan yog‘ olish holatini baholash boshqaruvini shakllantiruvchi hisoblash algoritmidan foydalanib, ishlab chiqilgan o‘simlik moylarini ekstraksiyalashning ko‘p bosqichli texnologik jarayonini optimal boshqarish tizimi “Yangiyo‘l yog‘-moy” AJda joriy qilingan (“O‘ZYOG‘MOYSANOAT” Korxonalari Uyushmasining 2024-yil 10-noyabrdagi №KC/3-352-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada yog‘ konsentratsiyasi 3-5% gacha oshirish imkonini bergan;

modda almashish qonuniyatlariga asoslangan matematik model va unga muvofiq ishlab chiqilgan dasturiy ta‘minot “Yangiyo‘l yog‘-moy” AJ ishlab chiqarishiga joriy etilgan (“O‘ZYOG‘MOYSANOAT” Korxonalari Uyushmasining 2024-yil 10-noyabrdagi №KC/3-352-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada ekstraksiyalash jarayoniga sarflanadigan umumiy vaqtini 9% ga qisqartirish imkonini bergan;

paxta chigitidan yog‘ olish jarayonini modda almashish qonuniyatlariga asoslangan bashoratlovchi matematik modeli ishlab chiqilgan “Yangiyo‘l yog‘-moy” AJ da joriy qilingan (“O‘ZYOG‘MOYSANOAT” Korxonalari Uyushmasining 2024-yil 10-noyabrdagi №KC/3-352-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada yog‘-moy mahsulotlar sifatini oshirish hamda presslash, ekstraksiyalash, rafinatsiyalash jarayonlarini muvofiqlashtirish imkonini beruvchi koordinatsion boshqarish algoritmi taklif etilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning natijalari 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashlarda 7 ta ilmiy maqola, shundan, xalqaro jurnallarda 3 ta va respublika jurnallarida 4 ta ilmiy ish nashr qilingan, EHM uchun dasturlarni rasmiylashtirish bo'yicha 4 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning asosiy qismi 111 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYA ISHINING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya ishi mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilab berilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi aniqlangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish ro'yxati, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**O'simlik xomashyolaridan yog' olish jarayonini boshqarishning zamonaviy holati**" to'rtta paragrafdan iborat bo'lib, o'simlik urug'laridan yog' ajratib olish jarayonlarini xususiyatlari, o'simlik yog'larini avtomatlashtirish va boshqarish tizimlarini hozirgi holati, paxta chigitidan yog' ajratib olish jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirish va boshqarish usullari, dissertatsiya ishini maqsad va vazifasi o'rganilgan. Mazkur bobda o'simlik xomashyosidan yog' ajratib olish jarayonlarining texnologik asoslari va ularni boshqarish tizimlari bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Shu jumladan, mavjud ixtirolar, patentlar va mualliflik guvohnomalari sharhi keltirilib, ekstraksiya jarayonlarining samaradorligini oshirish yo'nalishlari ko'rib chiqilgan.

Zamonaviy sanoat korxonalarida o'simlik yog'larini ajratib olish jarayonlari yuqori sifatli va iqtisodiy samarali bo'lishi uchun optimal boshqarish tizimlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu boshqarish tizimlari texnologik jarayonlarning barqaror ishlashini ta'minlab, statik va dinamik optimallashtirish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Bu jarayonda maksimal unumdorlikka erishish, energiya sarfini minimallashtirish va yakuniy mahsulot sifatini talab darajasida ushlab turish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

1-rasmda o'simlik urug'laridan yog' olish jarayonlarini umumiy blok sxemasi har bir jarayonlarda resurslardan oqilona foydalanish, minimal energiya sarfi, boshqarish samaradorligi, jarayonni to'liq o'rganish va uni ilmiy jihatdan tahlil qilish masalalari o'rganildi. Aks holda, yuqori sifatli rafinatsiyalangan o'simlik yog'larini ishlab chiqarish imkonsiz bo'lib qoladi. Zamonaviy boshqarish yondashuvlari nafaqat

sifatli mahsulot ishlab chiqarishni, balki yaroqsiz mahsulot chiqishining oldini olishni ham ta'minlaydi.




1-rasm. O'simlik urug'laridan yog' olish jarayonlarini blok sxemasi

O'simlik yog'larini ajratib olish jarayonini avtomatlashtirish va boshqarish tizimlarining hozirgi holatini o'rganish davomida quyidagi jarayonlarga katta e'tibor qaratilmagan, o'simlik yog'larini ekstraksiya qilish va rafinatsiyalash jarayonlarini optimal boshqarish uchun zarur mezonlar, chegaraviy shartlar hamda optimallashtirish amalga oshiruvchi dasturlariga etarlicha rivojlanmagan, jarayonlarni real vaqt rejimida monitoring qilish va boshqarish uchun koordinatsiyalash algoritmi yordamida jarayonning muvofiqashtirish inobatga olinmaganligi. Shu sababli ekstraksiya jarayonlarini sanoat miqyosida virtual monitoring qilish tizimlarini ishlab chiqish, ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirish va boshqarish jarayonlarini optimallashtirish muhim ilmiy-amaliy vazifa sifatida dolzarb bo'lib qolmoqda.

Adabiyot manbalarini tahlil qilish natijalari va belgilangan maqsad asosida tadqiqotning asosiy vazifalari aniqlab olingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“O'simlik yog'larini ekstraksiyalash jarayonlarining matematik modellari”** deb nomlangan. Ushbu bobda o'simlik yog'larini ishlab chiqarishning asosiy bosqichlari – presslash, ekstraksiyalash va rafinatsiyalash jarayonlarining matematik modellarini yaratish va tahlil qilish masalalari ko'rib chiqilgan.

2-rasmda o'simlik urug'laridan yog' siqib olishda kimyoviy va diffusion jarayonlarni tezlashtirish, energiya sarfini kamaytirish maqsadida parchalanish darajasini baholash hamda parchalanish yetarli bo'lganda “yopiq sikl” asosida presslash jarayonini matematik modeli ishlab chiqildi.




2-rasm. “ Yopiq sikl” asosida presslash – saralash jarayonini blok sxemasi

Urug‘ larning yiriklik darajasi (zarrachalar o‘lchami) elak tahlili usuli orqali aniqlandi. Tajriba uchun urug‘ namunasi olinib, u laboratoriya elaklar to‘plami (ГОСТ 6613-86) orqali elak moshinasi yordamida 10-15 daqiqa davomida elab chiqildi.

$$\begin{cases}
 d_{o'rt} = \frac{\sum d_i}{n}, \\
 E_y = E_0 \cdot e^{kt} \\
 k = k_1 + \frac{k_2}{E_y} \\
 G_c = \frac{m_{o'tgan}}{m_{umumiy}} \cdot 100\% \\
 Z_q + Z_c = Z, (Z = 1) \\
 G_e = G_y + G_0 \\
 G_y = G_0 \cdot e^{-kt} \\
 G_{yog'} = G_{max} \cdot \left(1 - \frac{1}{e^{kt}}\right)
 \end{cases} \quad (1)$$

Presslash jarayoni uchun asosiy boshqaruvchilari vaqt, yiriklik darajasi va yog‘ miqdoriga bog‘liq modellashtirish natijasi.



3-rasm. Presslash jarayonini modellashtirish natijalari

O‘simlik yog‘larini ekstraksiyalash jarayoni murakkab bo‘lib, ko‘p parametrlilik boshqaruv obyekti hisoblanadi. 3-rasmda yog‘ni ajratib olish jarayonining to‘liq matematik ifodasi chigitdan yog‘ni olishdagi biologik, fizik, modda va issiqlik almashinuv jarayonlarini hamda gidrodinamik oqim holatini ifodalovchi tenglamalar orqali sodir bo‘ladigan jarayonlarning matematik modellari olindi. Matlab dasturida modellashtirish natijasini olishda quyidagi qiymatlarni tajriba asosida olindi: $k_{\xi} = 0.25$; $E_{\xi} = 2400$; $k_u = 0.18$; $E_q = 2100$; $k_y = 0.15$; $E_s = 1950$; $k_z = 0.012$; $E_z = 2800$; $k_d = 0.035$, $k_t = 0.30$, $a = 0.035$, $b = 0.25$.

Ekstraksiya jarayonini samaradorligini oshirish maqsadida keltirilgan (4) matematik ifodalar yordamida jarayonni modellashtirishni amalga oshiramiz. Buning uchun berilgan boshqaruv parametrlarini qiymatlarini tajriba o‘tkazib topildi.

O‘zgaruvchan kattaliklarning vaqt bo‘yicha dinamik o‘zgarishini ifodalovchi differensial tenglamalarni analitik usullar yordamida yechish ko‘p hollarda murakkab yoki imkonsiz bo‘ladi. Shuning uchun bunday tenglamalar tizimlarini yechishda raqamli integratsiya usullari qo‘llaniladi.

$$\left[\begin{array}{l} \frac{dG_{yog'}}{dt} = \varepsilon_d \cdot F_t(C_u + C_e) - Q_0 \frac{(1-c_0)}{1-c}, \\ \frac{dG_{yog'}}{dt} = k_d \cdot \frac{V}{m} [C_u - k_t \cdot C_e], \\ \frac{dC_z}{dt} = k_z(C_{z,0} - C_z) \cdot \left(\frac{C_{e,y}}{C_{\tilde{y}}}\right)^{\alpha} \cdot e^{\frac{-E_z}{RT}}, \\ \frac{d\xi}{dt} = k \cdot \xi(1-\xi) \cdot e^{\left(\frac{-E_{\xi}}{RT}\right)}, \\ \frac{dC_{u,y,k}}{dt} = -k_u \cdot \xi(C_{u,y} - \beta C_{m,y}) e^{\left(\frac{-E_q}{RT}\right)}, \\ \frac{dC_{m,t,y,k}}{dt} = k_y \cdot \xi \left(\frac{C_{u,y}}{\beta} - C_{m,y}\right) e^{\frac{-E_q}{RT}}, \\ k = k_0 \cdot e^{\frac{-E_q}{RT}}. \end{array} \right. \quad (4)$$

Presslash jarayoni uchun ishlab chiqilgan matematik ifodalarini amalga oshirish uchun samarali yondashuvlardan biri Runge–Kutta usuli bo‘lib, u bir nuqtali metodlar turga kiradi. Bunda $f(y, t)$ quyidagi komponentlardan iborat: jarayon kinetikasini tavsiflovchi uchta differensial tenglama mavjud bo‘lib, ular erituvchi konsentratsiyasi $c_e(t)$, yakuniy mahsulot miqdori $G_{yog'}(t)$ va yog‘ tarkibidagi zararli modda konsentratsiyasi $C_z(t)$, o‘simlik urug‘ining buzulish darajasi $\xi(t)$, urug‘ tarkibidan ajralgan yog‘ konsentratsiyasi $C_{u,y}(t)$, mitselladan ajralgan yog‘ konsentratsiyasining $C_{m,y}(t)$ vaqt bo‘yicha o‘zgarishini ifodalaydi. Ushbu

tenglamalarni (5) formuladagidek qulay va ixcham shaklda ko‘rsatish maqsadida ular vektor ko‘rinishga keltiriladi:

$$y(t) = \begin{pmatrix} G_{yog}(t) \\ C_e(t) \\ C_z(t) \\ \xi(t) \\ C_u(t) \\ C_y(t) \end{pmatrix}, \frac{dy}{dt} = f(y, t) \quad (5)$$

(6) kinetik koeffitsient $k(t)$ Arrhenius tenglamasi bilan aniqlanadi:

$$k = k_0 \cdot e^{\frac{-E_a}{RT}} \quad (6)$$

Vektor ko‘rinishidagi tizim uchun Runge-Kutta formulasi quyidagicha yoziladi:

$$\begin{cases} k_1 = h \cdot f(y_n, t_n), \\ k_2 = h \cdot f(y_n + \frac{k_1}{2}, t_n + \frac{h}{2}), \\ k_3 = h \cdot f(y_n + \frac{k_2}{2}, t_n + \frac{h}{2}), \\ k_4 = h \cdot f(y_n + k_3, t_n + h). \end{cases} \quad (7)$$

Bu yerda (7) h — integratsiya qadami bo‘lib, uning kichik qiymati modellashtirish aniqligini oshiradi.

$$y_{n+1} = y_n + \frac{1}{6}(k_1 + 2k_2 + 2k_3 + k_4) \quad (8)$$

Har bir baholashda formula Arrhenius koeffitsiyenti yangilanadi va shu bilan tizimning har bir bo‘lagi vaqtga bog‘liq harorat orqali yangilanadi.


Matematik modellashtirishda differensial tenglama (8) Runge–Kutta usuli yordamida echildi va ushbu algoritmnning qo‘llanilishi jarayon kinetikasining silliq, barqaror va fizik mazmunga to‘liq mos vaqt bo‘yicha o‘zgarish qonuniyatlarini qayta tiklash imkonini berdi.

Ekstraksiya usulida olingan yog‘ni ushbu fizik-kimyoviy qonuniyatlar asosida ishlab chiqilgan matematik model natijalarini Matlab dasturida quyidagi ketma – ketlikda amalga oshirildi (4-rasm).

Ushbu ketma-ketlik natijasida erituvchi konsentratsiyasi, yog‘ konsentratsiyasi hamda umumiy jarayondan chiqadigan yog‘ miqdori, erituvchi ekstraksiya jarayonida erituvchi urug‘ ichiga kirib borishi natijasida urug‘ning hujayra strukturasi bosqichma-bosqich buzilishiga oid matematik ifodalar ishlab chiqildi. Bu buzilish jarayoni yog‘ni ham, zararli moddalar o‘tishini ham boshqaradi. Modelda yangi o‘zgaruvchi - urug‘ strukturasi buzilish darajasi $\xi(t)$ kiritildi. Bu parametr erituvchining urug‘ to‘qimasiga ta’sir darajasini ifodalaydi va barcha jarayonlarni o‘zaro bog‘laydi.

$\xi=0$ urug‘ butun, struktura buzilmagan (jarayon boshi), $\xi=1$ struktura to‘liq buzilgan (jarayon oxiri). Bu asosiy tamoyili yog‘ ham, zararli moddalar ham

urug‘dan faqat struktura buzilgan darajada o‘ta oladi.



4-rasm. Ekstraksiyalash jarayonining modellashtirish natijasi

Uchinchi bob “Yog‘ olish jarayonining optimal boshqarish algoritmlari” deb nomlangan ushbu uchinchi bobda, chigitdan yog‘ olish asosan presslash, ekstraksiyalash hamda rafinatsiyalash orqali ko‘p bosqichda amalga oshishi sababli umumiy samaradorligini oshirish uchun har bir jarayonlarni iqtisodiy, texnologik, sifat ko‘rsatgichlarini tizimli tahlillash orqali optimallashtirish masalasi qo‘yildi.

Ekstraksiyalash jarayonini optimallashtirishda asosiy maqsad - berilgan chigitdan maksimal yog‘ olish. Bu maqsadni quyidagi matematik mezon orqali ifodalaymiz (9).


$$R_{ek} = \left(\frac{m_0 C + k_y (1 - e^{-aCt}) T}{m_0 C} \right) \cdot 100\% \quad (9)$$

Optimallik mezonini maksimallashtirish uchun matematik modelda mavjud cheklovlar doirasida optimal parametrlar to‘plami tanlanadi. Optimallashtirish jarayonida quyidagi chegaraviy shartlar (10) e‘tiborga olinadi:

$$\begin{aligned} T^{\min} &\leq T_{ek} \leq T^{\max} \\ C^{\min} &\leq C_{ek} \leq C^{\max} \\ t^{\min} &\leq t_{ek} \leq t^{\max} \end{aligned} \quad (10)$$

Ushbu chegaraviy shartlar hamda tanlangan mezon yordamida ekstraksiya jarayonining optimallashtirish masalasini Matlab dasturida *fmincon* algoritmi yordamida amalga oshirdi (5-rasm).


Harorat, erituvchi konsentratsiyasi va vaqtning eng optimal kombinatsiyasini topganimizda, R_{ek} maksimal bo‘lishi kerak.



5- rasm. MATLAB muhitida *fmincon* algoritmi yordamida ekstraksiyalash jarayonining iteratsion optimallashtirilishi

Berilgan mezon bo‘yicha optimal qiymatlarni topish uchun natijalarni hozirda mavjud adabiyodlarni tahlil qilish orqali mavjud chegaraviy shartlarni va eksperimental qiymatlardan foydalanamiz.

MATLAB dasturi yordamida ekstraksiyalash jarayonining iteratsiyalar bo‘yicha optimallashtirish jarayoni keltirilgan.



6-rasm. Matlab dasturida ekstraksiyalash jarayoni uchun olingan optimallik natijalari

6-rasmdan ko‘rinib turibdiki, iteratsiyalar davomida maqsad funksiyasi monoton ravishda kamayib, cheklovlar buzilmagan holda birinchi tartibli optimalik mezoni qanoatlantirilgan va natijada barqaror optimal yechimga erishilgan.

Optimallashtirish natijalariga ko‘ra, jarayon uchun optimal harorat $T^* = 60^{\circ}\text{C}$, optimal vaqt $t^* = 57.9$ min, optimal yog‘ konsentratsiya $C^* = 0.8\%$, urug‘ tarkibidagi yog‘ miqdori 10.5% , urug‘ni buzilish darajasi $C_z = 0.00559\%$, $\xi = 0.998$ va optimal ekstraksiya darajasi $R^* = 93.33\%$ qilib belgilandi.

Bu qiymatlar ekstraksiya jarayonining maksimal samaradorlikka erishuvchi ishlash nuqtasini ifodalaydi va xomashyodan yog‘ ajralishining to‘liq amalga oshganini ko‘rsatadi. Aniqlangan optimal parametrlarning fizik-kimyoviy mazmuni jarayon kinetikasining yuqori sezuvchanligini va optimallashtirish modelining real texnologik rejimlar bilan yuqori mosligini tasdiqlaydi.

Bir biri bilan uzviy bog‘langan yirik yog‘ olish majmuasini jarayonlarini boshqarish uchun iteratsiyasiz kvazichiziqdashgan koordinatsion boshqarish algoritmi ishlab chiqildi (7-rasm).

Koordinatsion boshqarish algoritmi quyidagi ketma- ketlikda yaratildi:

1) Joriy holat (X^j, U^j) hamda optimallashtirish natijasida boshqaruvchi parametrlarining optimal qiymatlari (X_j^{opt}, U_i^{opt}) topiladi.

2) Parametrlarni chegaraviy qiymatlari aniqlanadi :

$\tilde{X}_j^j \leq X_j^j \leq \tilde{X}_j^j, \tilde{U}_i^j \leq U_i^j \leq \tilde{U}_i^j$ bu yerda $\tilde{X}_j^j, \tilde{X}_j^j$ -kiruvchi va boshqaruvchi parametrlarni kichik va katta chegaraviy qiymatlari;

$\tilde{U}_i^j, \tilde{U}_i^j$ - chiquvchi parametrlarni kichik va katta qiymatlari. Agar ushbu chegaraviy shart bajarilmasa boshqarish tizimi avtomatik holatini qayt etadi va avariya signalini beradi.

3) Agar $(U_i^{opt} - U_i^j) \geq \sigma$ bo‘lsa, unda $X_j^i = X_j^{opt}$ deb qilindi va j- kanal bo‘yicha boshqarish o‘zgartirilmaydi ($0 \leq \sigma$ – modelni aniqlik darajasi);

Agar $(U_i^{opt} - U_i^j) \geq \sigma$ bo‘lsa, u holda quyidagi shartlar ko‘riladi:

a) qachonki $(X_j^{opt} - U_j^j) \leq \varepsilon_i$ bo‘lsa, unda X_j^i bo‘yicha boshqarish ta’siri o‘zgartirilmaydi;


b) agar $(X_j^{opt} - X_j^j) \geq \varepsilon_i$ yoki $\|X_j^{opt} - X_j^j\| = \Delta x > \varepsilon_i$ bo‘lsa, u holda j kanal bo‘yicha sozlanuvchi qismga Δx_i minimallashtirish uchun boshqarish komandasi beriladi;

4) Shunday boshqaruvchi ta’sir $\Delta U(X_i)$ tanlanadiki u Δx_i minimallashtiradi. $\Delta U(X_i)$ ni tanlash quyidagi tartibda topiladi.

Har bir boshqaruvchi parametrning chegaraviy qiymatiga mos boshqaruv mavjud, ya’ni $U(\tilde{X}_j) \leq U(X_j) \leq U(\tilde{X}_j), (\tilde{X}_j) \leq (X_j) \leq (\tilde{X}_j)$.

5) Boshqaruv obyekti xususiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi shartlarni yozamiz:

a) $U(U_i' + U_i'') = U(X_j') \pm U(X_j'')$ bunda $U(X_j'), U(X_j'')$ – X_i ni birinchi va ikkinchi qiymatlariga mos bo‘lgan boshqaruvchi ta’sir;



7-rasm. Chigitdan yog‘ olish jarayonining koordinatsion boshqarish algoritmi

b) $U(CX_j^i) = U(CX_j^j)$, qaysiki $C = \text{const}$, X_j^i - ning har qanday qiymat uchun boshqaruvchi ta'sir $U(X_j^j) = U(\tilde{X}_j) X_j^j / \tilde{X}_j$. Bundan kelib chiqadiki Δx_i ni minimallashtirilgan boshqaruvchi ta'sir $U(\Delta x_i) = U(\tilde{X}_j) \Delta X_i / \tilde{X}_j$.

Buning natijasida X_j^{opt} qiymatga erishish uchun beriladigan boshqaruv ta'sir:

$$U(X_j^{opt}) = U(X_j^j + \Delta X_i) + \text{sign}(U + \Delta X_i) \quad (11)$$

Ushbu tenglama k - boshqaruv parametrlarini optimal qiymatini hisoblab beradi, hamda U_k^j qiymatni ΔU_k ga ko'paytirish yoki kamaytirish orqali optimal boshqaruvni (11) amalga oshiradi.

To'rtinchi bob "**Chigitdan yog‘ olish jarayonining sinash natijasi**" deb nomlangan va bunda zamonaviy avtomatik boshqarish tizimlarini qo'llash orqali korxonada ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish jarayonida katta yutuqlarga erishish mumkin.

O'simlik yog'larini ishlab chiqarish sanoati, xususan, «Yangiyo'l yog'-moy» korxonasi kabi yirik korxonalar, doimiy sifatni ta'minlash, samaradorlikni oshirish va raqobatbardoshlikni saqlash uchun texnologiyalarni modernizatsiya qilish zaruriyatiga ega.

Hozirgi kunda zamonaviy avtomatik boshqarish tizimlarini qo'llash orqali korxonada ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va avtomatlashtirish jarayonida katta yutuqlarga erishish mumkin. Ushbu yondashuv ishlab chiqarish jarayonlarini yuqori darajada nazorat qilish, aniqlikni oshirish va energiya samaradorligini yaxshilash imkonini beradi.

Sxemaning yuqori qismida "Texnologik jarayon" markaziy obyekt sifatida joylashtirilgan bo'lib, u nazorat va o'lchov asboblari hamda avtomatika elementlari

orqali boshqariladi. Shuningdek, axborotni qayta ishlash va boshqarish tizimi operator texnolog faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda jarayonning uzluksiz monitoringini ta'minlaydi. Har bir texnologik bosqichning matematik modeli jarayonning statik va dinamik parametrlarini tavsiflovchi tenglamalar asosida shakllantirilgan va ular yordamida jarayon holatining vaqt bo'yicha o'zgarishi aniqlanadi.


Modellar asosida o'tkaziladigan imitatsion hisoblashlar jarayonning statik va dinamik xususiyatlarini baholash, tashqi va ichki ta'sirlar ostida boshqarish ta'sirlarining samaradorligini aniqlash imkonini beradi. O'lchash vositalaridan (datchiklardan) olingan real vaqtli ma'lumotlar modellashtirish blokiga uzatilib, model parametrlarini aniqlashtirish va jarayon holatini baholashda foydalaniladi. Modellashtirish natijalari optimallashtirish blokiga uzatiladi, unda texnologik cheklovlar, sifat ko'rsatkichlari va boshqarish mezonlari hisobga olingan holda jarayonning optimal boshqarish parametrlarini aniqlash amalga oshiriladi.

Optimallashtirish jarayoni texnologik samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va mahsulot sifatini barqaror ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u APC darajasida amalga oshiriladi. Olingan optimal boshqaruv qarorlari koordinatsion boshqarish algoritmi orqali taqsimlangan boshqarish tizimiga uzatiladi.

Mavjud boshqarish tizimi real vaqt rejimida ijro qurilmalari orqali boshqarish obyektiga bevosita ta'sir ko'rsatib, texnologik jarayonning barqarorligini va ishonchliligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, yuqori darajadagi qaror qabul qilish bloki va operator (qaror qabul qiluvchi shaxs) jarayon holatini monitoring qilish, favqulodda vaziyatlarda aralashish va boshqarish strategiyalarini moslashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Modellashtirish natijalari optimallashtirish blokiga uzatiladi, unda texnologik cheklovlar, sifat ko'rsatkichlari va boshqarish mezonlari hisobga olingan holda jarayonning optimal boshqarish parametrlarini aniqlash amalga oshiriladi. Optimallashtirish jarayoni texnologik samaradorlikni oshirish, resurslardan oqilona foydalanish va mahsulot sifatini barqaror ta'minlashga qaratilgan bo'lib, u APC darajasida amalga oshiriladi. Olingan optimal boshqaruv qarorlari koordinatsion boshqarish algoritmi orqali taqsimlangan boshqarish tizimiga uzatiladi.

Taqsimlangan boshqarish tizimi real vaqt rejimida ijro qurilmalari orqali boshqarish obyektiga bevosita ta'sir ko'rsatib, texnologik jarayonning barqarorligini va ishonchliligini ta'minlaydi.



9-rasm. Chigitdan yog‘ olish jarayonlarini takomillashgan boshqarish tizimini struktura sxemasi

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan model, algoritm hamda dasturiy vositalar “Yangiyo‘l yog‘-moy” zavodida sinovdan o‘tdi va uning natijalariga ko‘ra yog‘ konsentratsiyasi 3-5% gacha yaxshilandi.

XULOSA

1. O‘simlik urug‘laridan yog‘ ajratib olish jarayonlarini xususiyatlari, boshqaruv tizimlarini hozirgi holati, modellashtirish, optimallashtirish va boshqarish usullarini tahlil qilib avtomatlashtirish va boshqarishni takomillashtirish omillari belgilandi.

2. Presslash, ekstraksiyalash, rafinatsiyalash jarayonlarini modda va issiqlik almashinuv, fizik, mexanik hamda kimyoviy qonuniyatlar asosida analitkli ifodalash, matematik modellashtirish ishlari amalga oshirildi. Bu jarayonlarni holatini aniq baholash va unga ko‘ra boshqaruv qaroridan qabul qilish imkonini berdi.

3. Tadqiq qilinayotgan jarayonlar uchun tanlangan mezon, qo‘yilgan chegaraviy shartlar hamda yechish usuli asosida optimallashtirish algoritmi ishlab chiqildi, ularga ko‘ra optimallashtirish masalasi yechildi.

4. Qo‘yilgan optimallashtirish masalasini yechish uchun har bir jarayonga alohida mezonlar tanlandi, chegaraviy shartlar belgilandi hamda yechish usullari asoslandi. Bu optimallashtirish algoritmini shakllantirish imkonini beradi.

5. Bir biri bilan uzviy bog‘langan yirik yog‘ olish majmuasini jarayonlarini boshqarish uchun iteratsiyasiz kvazichiziqlashgan koordinatsion boshqarish algoritmi ishlab chiqildi. Ushbu algoritm jarayonlarni holatini baholash orqali tezkor boshqaruvni amalga oshirish imkonini berdi.

6. Yog‘-moy korxonalarini uchun takomillashgan boshqaruv tizimini funksional-struktura sxemasi ishlab chiqildi.

7. Mavjud tizimlardan farqli presslash, ekstraksiyalash va rafinatsiyalash jarayonlarini birgalikda koordinatsiyalash tufayli optimal boshqaruvchi amalga oshiruvga erishildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.03/26.05.2022.Т.10.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ «ТАШКЕНТСКИЙ
ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И МЕХАНИЗАЦИИ
СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
«ТАШКЕНТСКИЙ ИНСТИТУТ ИНЖЕНЕРОВ ИРРИГАЦИИ И
МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА»**

ИСАКОВА МАТЛУБА АБДУХАЛИМОВНА

**РАЗРАБОТКА УСОВЕРШЕНСТВОВАННОЙ СИСТЕМЫ
УПРАВЛЕНИЯ ПРОЦЕССОМ ЭКСТРАКЦИИ
РАСТИТЕЛЬНЫХ МАСЕЛ**

05.01.08 – Автоматизация и управление технологическими
процессами и производствами

АВТОРЕФЕРАТ

диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам

Ташкент -2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером B2024.4.PhD/T5077.

Диссертация выполнена в Национальном исследовательском университете «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства».

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.tiiame.uz) и в Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Исмаилов Мирхалил Агзамович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Алимова Нодира Батиржановна
доктор технических наук, профессор

Туракулов Зафар Сафарович
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Бухарский государственный технический университет

Защита диссертации состоится «_____» _____ 2026 г. в _____ часов на заседании Научного совета DSc.03/26.05.2022.T.10.05 при Национальном исследовательском университете «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства» (Адрес: 100095, г.Ташкент, ул. Кори Ниязий, 39. Тел.: (99871) 237-46-68, факс: +(99871) 237-19-36, e-mail: admin@tiiame.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства» (регистрационный номер № _____). (Адрес: 100095, г.Ташкент, ул. Кори Ниязий, 39. Тел.: (99871) 237-46-68).

Автореферат диссертации разослан «_____» _____ 2026 года.
(протокол рассылки № _____ от «_____» _____ 2026 г.).

Н.С.Маматов

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор технических наук, профессор

Д.К.Бекмуратов

Ученый секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по техническим наукам (PhD)

С.С.Раджабов

Председатель научного семинара при Ученом совете по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, старший научный сотрудник.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Вопросы исследования и совершенствования процессов извлечения масла из семян растений в глобальном штабе в настоящее время становится важной составляющей глобальной продовольственной безопасности. Рост численности населения мира, неуклонное увеличение вопросов на масложировую продукцию, а также ограниченность сырьевой базы объективно определяют необходимость научно обоснованной оптимизации производственных процессов. Сложная физико-химическая природа технологических процессов, многофакторность и недостаточная точность традиционных методов требуют разработки новых научных подходов. При этом особое внимание уделяется повышению эффективности производства, увеличению выхода масла, улучшению качества продукции и исследованию системы управления с учетом концентрации вредных веществ.

В мировой научной практике с целью интенсификации процессов извлечения масел активно исследуются передовые методы, такие как ультразвуковая кавитация, микроволновая экстракция, сверхкритический CO₂ и технологии импульсного электрического поля (ИЭП). Однако данные технологии требуют применения специализированного оборудования нового поколения, разработки специальных конструктивных решений, а также значительных капитальных затрат. В Республике широко распространённые в масложировой промышленности ленточные экстракторы типа НД-1250 имеют стандартную конструкцию, разработанную ещё в советский период, и их технико-технологические параметры конструктивно исключают возможность установки ультразвуковых генераторов, микроволновых установок или реализации режимов сверхкритического давления. В таких условиях внедрение современных методов интенсификации в существующее промышленное оборудование является технически и экономически нецелесообразным. В связи с этим одной из актуальных задач является глубокое научное исследование физико-химических закономерностей процесса извлечения масла, протекающего в экстракторе НД-1250, построение новых математических моделей кинетики процесса на основе линейных и нелинейных динамических задач, а также разработка численных алгоритмов их решения и соответствующего программного обеспечения.

В Республике уделяется особое внимание вопросам расширения производства экологически чистой продукции на основе химической промышленности, нефтегазового сектора и сельскохозяйственного сырья с целью повышения экспортного потенциала и укрепления продовольственной безопасности. В реализации данных целей, в частности, в указах Президента Республики Узбекистан определены задачи, такие как «широкое внедрение ресурсосберегающих и энергоэффективных технологий в экономике», «укрепление продовольственной безопасности», а также «увеличение производства экологически чистой продукции». В рамках реализации указанных задач приоритетными научными направлениями в области математического моделирования и оптимизации процессов прессования, экстракции и рафинации

